

TEMURIYLAR DAVRIDA SAMARQAND — SHARQNING ILM-FAN MARKAZI

Abdulloyeva Shukrona Xushbaxtovna

Yuksalish maktabi Samarqand filiali huquq fan o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17292399>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Temuriylar davrida Samarqandning ilm-fanga bo'lgan yuksak e'tibori, Ulug'bek rasadxonasining ahamiyati va Samarqand ilmiy maktabining xalqaro maydondagi o'rni to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, Samarqand, ilm-fan, madaniyat, Ulug'bek, madrasalar, ilmiy meros, astronomiya, tarix, O'zbekiston tarixi.

SAMARKAND — CENTER OF SCIENCE OF THE EAST DURING THE TIMURID ERA

Annotation. This article contains information about the high attention of Samarkand to science during the Timurid era, the importance of Ulugbek Observatory and the role of Samarkand Scientific School in the international arena.

Keywords: Timurid era, Samarkand, science, culture, Ulugbek, madrasas, scientific heritage, astronomy, history, history of Uzbekistan.

ПРИ ТИМУРИДАХ САМАРКАНД-ЦЕНТР НАУКИ ВОСТОКА

Аннотация. В этой статье представлена информация о высоком внимании Самарканда к науке при Тимуридах, значении улугбекской обсерватории и месте Самаркандской научной школы на международной арене.

Ключевые слова: эпоха тимуридов, Самарканд, наука, культура, Улугбек, медресе, научное наследие, астрономия, история, история Узбекистана.

Kirish

O'zbekiston tarixida Temuriylar davri alohida o'rin tutadi. XIV asr oxiri va XV asrning birinchi yarmi — Movarounnahrning siyosiy, madaniy va ilmiy jihatdan yuksalgan davridir.

Sohibqiron Amir Temur (1336–1405) va uning vorislari, xususan, Mirzo Ulug'bek (1394–1449) boshchiligidagi siyosiy va madaniy siyosat natijasida Samarqand Sharqning eng yirik ilm-fan markaziga aylandi. Bu davrda ilmiy anjumanlar, madrasalar, kutubxonalar, rasadxona va me'moriy obidalar barpo etildi. Samarqandda yig'ilgan olimlar Sharq va G'arb ilm-fanini uyg'unlashtirib, yangi ilmiy yutuqlarga erishdilar. Temuriylar davri (XV asr) Samarqandni nafaqat siyosiy poytaxt, balki jahon ilm-fani markazlaridan biriga aylantirdi.

Ayniqsa, Mirzo Ulug'bek (1394–1449) ilm-fan va astronomiyaga katta e'tibor berib, shaharni sharqiy Yevropada beqiyos ilmiy markazga aylantirdi.

Ushbu maqolaning maqsadi — Temuriylar davrida Samarqandning ilm-fanga bo'lgan yuksak e'tibori, Ulug'bek rasadxonasining ahamiyati va Samarqand ilmiy maktabining xalqaro maydondagi o'rnini tahlil etishdir.

Temuriylar davrida ilm-fanning rivoji uchun yaratilgan sharoit haqida to'xtaladigan bo'lsak Amir Temur davlat boshqaruvida ilm-ma'rifatni yuqori qadrladi.

Uning “Kuch — adolatda” tamoyiliga mos ravishda, davlatning harbiy va iqtisodiy qudrati bilan bir qatorda, madaniy taraqqiyot ham rivojlantirildi.

Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi shaharlar obod qilindi, me'moriy inshootlar qurildi, madrasalar faoliyati qo'llab-quvvatlandi.

Temur o'z farmonlari bilan turli mamlakatlardan ilm ahli va hunarmandlarni Samarqandga olib kelgan. Natijada, ilm-fan, adabiyot va san'at bir markazda jam bo'ldi. Ilm ahli yuqori darajada qadrlandi. ilm olish har bir musulmon uchun farz ekanligi xalqqa yetkazishga imkon qadar harakatlar qilindi.

Ayniqsa Temuriyzodalardan bo'lgan Mirzo Ulug'bek — buyuk astronom va ilm homiysi sifatida dunyo sahnasida alohida e'tirof etilib kelinadi. Mirzo Ulug'bek 1409-yilda Samarqand hukmdori bo'lganidan so'ng, shaharni ilm-madaniy markazga aylantirishga intildi. 1417–1420-yillarda u Registon maydonida mashhur Ulug'bek madrasasini barpo etdi. Bu olimlar va talabalar yig'iladigan ilmiy markazga aylandi. Mirzo Ulug'bek nafaqat buyuk hukmdor, balki Sharqning eng yirik olimlaridan biri sifatida tarixga kirdi. Bu madrasa o'z davrida nafaqat diniy ta'lim, balki matematika, astronomiya, tarix, falsafa, geometriya kabi dunyoviy fanlarni o'qitish markaziga aylandi. Madrasada Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Ali Qushchi kabi olimlar faoliyat yuritdilar.

Ulug'bek rasadxonasining qurilishi va ilmiy faoliyati haqida to'xtaladigan bo'lsak eng avvalo 1424–1428 yillarda Ko'hak tepaligida uch qavatli, 30 m balandlikda silindr shaklidagi bino qurildi. Diametri taxminan 46 m, ichida radiusi 40–41 m bo'lgan gigant kvadrant (sextant) o'rnatildi. Ushbu asbob yer ostida ham joylashgan bo'lib, eng aniq astronomik kuzatuvlar qilishga imkon bergan. Arxeolog V. L. Vyatkin 1908–1914 yillarda bu rasadxonaning qoldiqlarini qazib topdi. Ilmiy yutuqlarga erishildi jumladan: “Ziji jadidi Ko'ragoniy”—Ulug'bek va uning olimlari (Qozizoda Rumiy, Jamshid al-Koshiy, Ali Qushchi) astronomik kuzatuvlar asosida “Ziji jadidi Ko'ragoniy” yulduzlar katalo-gini yaratdilar. Unda 1018 yulduzning koordinatalari keltirilgan. Bundan tashqari, ular quyidagi astronomik parametrlarni aniqlashdi:

yulduz yili: 365 kun 6 soat 10 daqiqa 8 soniya — hozirgi ma'lumotlar bilan solishtirilganda farqi faqat 58 soniya;

ekliptikaning e'gimi: $23^{\circ} 30' 17''$, bu ham juda yuqori aniqlikka ega;

sin 1° ni 18-chi oniyga qadar hisoblash — noyob numerik aniqlik.

Rasadxonaga Jamshid al-Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi mashhur olimlar jalb qilindi. Ular Samarqanddagi astronomiya maktabining asosiy ustunlarini yaratdilar.

Rasadxona halokatidan so'ng, Ali Qushchi ushbu ilmiy merosni Usmonlilar imperiyasiga olib borib, uning dunyoviy nishonlarga yetib borishiga xizmat qildi. “Ziji” katalogi keyinchalik Yevropada ham mashhur bo'lib, 1648-yilda Oksfordda birinchi marta chop etilgan.

Samarqand — ilmiy muloqot va madaniy uyg'onish markazi sifatida tan olindi. Temuriylar davrida Samarqandga Hindiston, Xitoy, Eron, Oltin O'rda, Misr, Suriya, Rum va boshqa o'lkalardan elchilar, savdogarlar va olimlar kelib turardi. Bu jarayon ilmiy muloqotni kuchaytirdi, turli xalqlarning bilimlari va tajribalari uyg'unlashdi. Samarqanddagi kutubxonalarda minglab qo'lyozmalar saqlanar, ulardan olimlar foydalanar edi. Bu davrda matematika, tibbiyot, geografiya, tarix, arxitektura, adabiyot va boshqa fanlarda yirik asarlar yaratildi. Masalan, G'iyosiddin al-Koshiyning π (pi) sonini 17 xona aniqlikda hisoblaganligi matematik tarixida muhim voqea hisoblanadi.

Temuriylar davrida qurilgan me'moriy obidalar nafaqat estetik go'zalligi, balki ilmiy ahamiyati bilan ham ajralib turadi. Samarqanddagi Registon majmuasi, Gur-Emir maqbarasi, Bibi Xonim masjidi, Ulug'bek madrasasi — ilm va san'at uyg'unligining yorqin namunalari.

Bu inshootlarda o'sha davr matematikasi, muhandislik san'ati va geometriya bilimlari amalda qo'llangan. Temuriylar davri ilm-fanning tarixiy ahamiyati haqida gapiradigan bo'lsak.

Temuriylar davri ilm-fani keyingi asrlar uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Ulug'bekning astronomik kuzatuvlari Yevropa olimlari tomonidan ham o'rganildi. XVII asrda Tycho Brahe va Ioann Kepler singari yevropalik astronomlar Ulug'bek ziji ma'lumotlaridan foydalandilar. Bu esa Temuriylar davridagi ilm-fanning global ahamiyatini ko'rsatadi. Temuriylar davridagi ilm-fan yuksalishi birinchidan, yurtdagi siyosiy barqarorlik, homiylik va moddiy ta'minotga, ikkinchidan, Ulug'bekning shaxsiy ilmiy-ijtimoiy salohiyatiga bog'liq edi. Ulug'bek rasadxonasida tahlil qilingan astronomik yo'nalishlar Yaqin Sharq va Yevropa ilm-faniga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa

Temuriylar davrida, xususan, Samarqandda yaratilgan ilmiy va madaniy muhit bugungi kunda ham tarixiy faxrimizdir. Bu davr — ilm-fan, adabiyot va san'atning uyg'unlashish davri bo'lib, u O'zbekistonning nafaqat milliy, balki jahon tarixidagi o'rni va ahamiyatini yuksak darajada namoyon qiladi. Temuriylar davrida yaratilgan boy ilmiy merosni chuqur o'rganish va kelajak avlodga yetkazish bizning tarixiy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bartold V.V. Turkestan v epokhu mongolskogo nashestviya. Moskva, 1963.
2. Boyle, J.A. The Cambridge History of Iran, Volume 5: The Timurid and Safavid Periods. Cambridge University Press, 1968.
3. Rashidov, R. O'zbekiston tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 2015.
4. Ulugh Beg. Zij-i Sultani. Istanbul, 1648 (qadimiy qo'lyozma nashri)
5. Woods, J.E. The Timurid Dynasty. Bloomington: Indiana University, 1990.
6. Qayumov, A. Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati. Toshkent: Fan, 1996.